

## **ADABIYOT DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH**

*Zarina Fayziyeva Otabek qizi*

*Navoiy viloyati Navbahor tumani 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, darslik va dasturni tuzishda ta'lim bosqichida chuqur o'zlashtirilmagan bilimlarni singdirishga e'tibor berilgan. Amaldagi dasturlar bo'yicha mavzular, birinchidan, umumiyligi o'rta maktabning sinovdan o'tgan yangi dasturlari negizida yaratilganligi, ikkinchidan, o'zlashtirilayotgan bilimlarning amaliy tadbiqi bosh mezon sifatida tanlanganligi hamda tarixiylik, izchillik, milliylik va zamonaviylik tamoyillariga to'la bo'ysundirilganligi bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda, doimiy taraqqiyot yaratilgan o'quv adabiyotlarini ilmiy-metodik tomondan kuzatishni ham talab etadiki, bu tabiiy jarayondir. Xuddi shu jihat adabiyot darslarida didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanishga ham aloqador. Mazkur holat maqolamiz dolzarb mavzulardan biriga bag'ishlanganligini ko'rsatadi.

**Аннотация:** Из наблюдений известно, что при составлении учебников и программ внимание уделялось привитию знаний, глубоко не освоенных на образовательном этапе. Предметы действующих программ отличаются тем, что, во-первых, они созданы на основе новых апробированных программ общей средней школы, во-вторых, в качестве основного критерия выбрано практическое применение полученных знаний и они полностью подчинено принципам историчности, системности, национализма и современности. Кроме того, постоянное развитие требует научно-методического контроля за создаваемой учебной литературой, что является закономерным процессом. Этот же аспект связан с использованием дидактических игровых технологий на занятиях по литературе. Данная ситуация показывает, что наша статья посвящена одной из актуальных тем.

**Abstract:** From the observations, it is known that in the preparation of textbooks and programs, attention was paid to instilling knowledge that has not been deeply mastered at the educational stage. The topics of the current programs are distinguished by the fact that, firstly, they are created on the basis of new tested programs of the general secondary school, and secondly, the practical application of the acquired knowledge is chosen as the main criterion and they are fully subordinated to the principles of historicity, consistency, nationalism and modernity. In addition, continuous development requires scientific and methodological monitoring of the created educational literature, which is a natural process. The same aspect is related to the use of didactic game technologies in literature classes. This situation shows that our article is dedicated to one of the current topics.

**Kalit so'zlar:** didaktik o'yin, kommunikativ – muloqot, integratsiya, imitatcion o'yinlar, tadbirkorlik teatri, psixodrama, sosiodrama.

**Ключевые слова:** дидактическая игра, коммуникативно-диалогическая игра, интеграция, имитационные игры, предпринимательский театр, психодрама, социодрама.

**Key words:** didactic game, communicative - dialogue, integration, imitation games, entrepreneurial theater, psychodrama, sociodrama.

## **Kirish**

Hozirda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan, barcha islohotlarning mazmun-mohiyati bir narsaga, ya'ni ta'limning sifatini oshirish, dars jarayonida kam kuch sarflab, ko'proq samaradorlikka erishishga qaratilgan. Biz ham ushbu nazariyani esdan chiqarmagan holda, ilmiy-nazariy adabiyotlardan metodologik manba sifatida foydalanib, belgilangan mavzu yuzasidan interfaol dars ishlanmalar, mavzu mazmunini ochib beruvchi vedio roliklar ishlab chiqishga harakat qildik. O'quvchilar diqqatini dars jarayoniga jalb qilish, berilayotgan ma'lumotlarni ular ongiga tez va oson yetib borishini ta'minlash maqsadida, axborot texnologiyalari faolligini birinchi darajaga olib chiqishga harakat qildik. Bu kurs ishi orqali axborot texnologiyalari yordamida faqatgina adib ijodi haqida ma'lumot berish emas, balkim o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini shakkantirish, asar qahramonlariga xolisona baho bera olish malakalarini rivojlantirish, adib asarlarida ilgari surilgan umumbashariy g'oyalarning tub mohiyatini to'g'ri tahlil qilish usullari ishlab chiqildi. Bundan nazarda tutilgan maqsad, har tomonlama yetuk, ma'naviyati mustahkam komil insonni voyaga yetkazishdir.

## **Natijalar:**

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinichiliklarni engish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallah, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;

- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma’naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishga e’tibor qaratiladi;
- o‘yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni talabalarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga qarab: syujetli-rolli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar o‘yini, konferentsiyalar, o‘yin-mashqlarga ajratish mumkin. O‘qituvchi-pedagog avval talabalarni individual (yakka tartibdagi), so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa, ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim. O‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning ftindamental ehtiyojlariga tayanadi. O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

Didaktik o‘yinlar yordamida bir necha fanni adabiyot bilan bog‘lash mumkin. Integratsiya o‘yin texnologiyalari yordamida yanada oson amalga oshiriladi. Adabiyot fani istalgan fan bilan aloqaga kirisha oladi. Chunki badiiy asar hayotning hamma qatlamini qamrab oladi. Adabiyot darslari boshqa o‘quv predmetlaridan alohida, mustaqil yashay olmaydi. Aksincha, u ta’lim bosqichlarida o‘rganiladigan xilma-xil o‘quv predmetlari, xususan, adabiyot, matematika, fizika, informatika, xorijiy tillar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganilsa, o‘z samarasini beradi. Chunki ta’lim tizimida fanlararo aloqadorlik – integratsiya darslarini tashkil etish o‘quvchilarning mavzuni tez va oson anglashiga olib keladi. Adabiyot darslari asosida so‘z va matn turgani uchun ham bu imkoniyat yanada kengayadi. Chunki matn vazifasini istagan o‘quv fani materiali bajara oladi. Umuman olganda, fanlararo aloqalarni amalga oshirishning turli xil usullari mavjud. Adabiyot darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini, uslublarini o‘rganish, shu orqali o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda bajariladigan ish turlaridan biri undan biror til hodisasi yoki uslubini aniqlash va izohlash, bunda o‘quv fanlararo integratsiyalashdan foydalanishdir.

Didaktik o‘yinlar:

*Imitatsion o'yinlar.* Bunday o'yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari faoliyati andoza qilinadi. Voqealar, kishilarning biror faoliyati (ish bitirish majlislari, rejani muhokama qilish, suhbatlar o'tkazish va b;), faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi ham mumkin. Stsenariyda bunday o'yin tuzilmasi to'la yozib chiqiladi va imitasiya qilinadigan obyektlar va jarayonlar belgilanadi.

*Operatsion (voqeiy) o'yinlar.* Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqeaxodisaining bajarilishi mashq qilinadi. Operatsion o'yinlar ish jarayoniga xos modellashtiriladi.

*Rol ijro etish o'yinlari.* Unda konkret shaxsning hulqi, xatti-harakati, o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi.

*Tadbirkorlik teatri.* Bunda qandaydir vaziyat va undagi kishining xulqi o'ynaladi. Bu o'yinning asosiy vazifasi turli holatlarda mo'ljalni to'g'ri baholay olishni o'rgatish, o'zining xulqiga to'g'ri baho berish, boshqa kishilarning imkoniyatlarini baholay olish va ular bilan muloqot o'rnatma olishga o'rgatishdir.

*Psixodrama va sosiodrama.* Bu ham o'ziga xos «teatr», lekin ijtimoiy psixologik maqsadni ko'zlaydi: Uning asosiy maqsadi jamoada vaziyatni his qila olish, boshqa kishining holatini o'zgartirish va unga baho berish, u bilan samarali muloqotga kirisha olishni shakllantirish hisoblanadi.

Bu texnologiya tayyorgarlik davrini ham o'z ichiga oladi. U ssenariyni yozib chiqish, vaziyat va obyektlarni shartli belgilar asosida tasvirlashdan boshlanadi. Ssenariy mashg'ulotning o'quv maqsadi, o'rganilayotgan muammoning tavsifi, qo'yilgan vazifani asoslash, o'yinning rejasi, vaziyatning mazmuni va qatnashuvchi shaxslarning tavsifti o'z ichiga oladi.

O'yinga kirishish. Bu bosqichda ish rejimi aniqlanadi, mashg'ulotning bosh maqsadi shakllantiriladi, muammoni qo'yish va vaziyatni tanlash asoslanadi.

O'tkazish bosqichi. U o'yin jarayonidir. O'yin boshlangach, hech kim unga aralashmaydi va uning borishini o'zgartira olmaydi. O'yinni faqat uni boshqaruvchi tuzatib borishi mumkin.

Tahlil bosqichi. O'yin natijalari muhokama qilinadi va baholanadi. Bu bosqichda ekspertlarning fikrlari eshitiladi. O'zaro fikr almashinib bo'lingach, talabalar o'z xatti-harakatlari va xulosalarini himoya qiladilar.

### Xulosa

Didaktik-ta'limi o'yinlarning asosiy turlari: Intellektual (aqliy), harakatli va aralash o'yin turlari. Fanlarning o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi. O'yinlar mohiyatiga ko'ra, bir necha turlarga bo'linadi. Biz dars mobaynida bularni qo'llaymiz. O'yinda ishtirok etuvchilar soniga ko'ra didaktik-ta'limi o'yin turlari: Individual o'yinlar, Guruhli o'yinlar, Ommaviy o'yinlar, Syujetli rolli o'yinlar, Ijodiy o'yinlar, Ishbilarmonlar

o‘yini, ta’limiy mashqlar. O‘quvchilar faoliyatiga ko‘ra turlari: o‘quvchi faoliyatini o‘zlashtirishni talab etadigan o‘yinlar, bilimlar mustaqil qo‘llaniladigan o‘yinlar, zakovatni rivojlantiruvchi o‘yinlar. Didaktik maqsadiga ko‘ra: Ta’lim-tarbiya beruvchi o‘yinlar, Bilimlarni mustahkamlovchi o‘yinlar, O‘quv materialini takrorlovchi o‘yinlar, Bilimlarni nazorat qiluvchi o‘yinlar. O‘qituvchi o‘rni bilan ulardan foydalansa, muvaffaqiyatlarga erishib, o‘quvchilarning e’tiboriga tushishi aniq. Ta’limning ta’sirchanligi haqida o‘ylash muallimning faoliyatiga mezon bo‘lishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Adabiyot nazariyasi. 2jildlik / akademik M.Nurmuhamedov tahriri ostida.– T: fan, 1978, 1979.
2. Adabiyot o‘qitish metodikasi./A.Zunnunov, N. Hotamov, J.Esonov, A.Ibrohimovlar hammuallifligida. –Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Adabiyotshunoslikka kirish. / T.Boboyev- qo‘llanma.–T: O‘qituvchi, 1979.
4. “Umumta‘lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018.
5. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 1-12 sonlar, 2018.
6. M.Mirqosimova. “O‘quvchilarni adabiy – estetik tahlilga o‘rgatish”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.